

TEXNOLOGIYA FANI O‘QUV JARAYONIDA TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Gofurova Onarxon Sotvoldiyevna

Andijon viloyati Baliqchi tumani 39- umumta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fani o‘quv jarayonida ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasi, texnologiya ta’limining didaktik tamoyillari, texnologiya fanida o‘qitish shakllari, texnologiya fanida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash to‘g‘risida to‘liq bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, ta’lim vositalari, didaktik tamoyillar, pedagogik texnologiyalar, ko‘rgazmalilik.

Kirish: Texnologiya ta’limi o‘quvchisi qilayotgan vazifani mohiyatini aniq tasavvur etgandagina ishga ongli tarzda kirishadi. Bu tamoyil o‘quvchilarda ilmiy bilimlarni, shuningdek ularni amalda foydalanish metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqi takomillashadigan bo‘ladi. O‘qitishdagi onglilik tamoyili o‘quvchilardagi ta’lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o‘rganilayotgan dalil, voqea, jarayonlar va ular orasidagi bog‘lanishni anglagan tarzda o‘zlashtirib olish, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda foydalana bilish kabi me’yorlarni anglatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Ta’lim vositalaridan qo‘llanishda ko‘rgazmalilik didaktik tamoyili asosiy o‘rin tutadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘quv materialini bayon qilishda didaktikaning eng asosiy prinsiplaridan biri -ko‘rsatmalilik tamoyilidan qo‘llaydilar. Didaktikada ko‘rsatmalilik tamoyili konkret bilan abstraktning birligi haqidagi qoida yordamida ko‘rib chiqiladi. Narsa yoki voqeaning aslini yoki tasvirini idrok qilish kishi uchun atrofdagi borliqni, biror haqiqatni bilishning ilk va eng oddiy harakati sanaladi, shuningdek o‘rganilayotgan narsalar, jarayonlar, hodisalar haqidagi aniq tasavvurlar va abstrakt tushunchalar hosil qilish uchun muhim vazifasini o‘taydi.

Ko'rsatmali qo'llanmalar - o'quvchilarni o'rganiladigan ob'yektlar, hodisalar, jarayonlar haqida yaqqol tasavvurlar hosil qilish metodida o'qitish niyatida foydalaniladigan vositalar. O'zlashtiriladigan bilimlar xarakteriga, o'quvchilarda mavjud bo'lgan tasavvur, tushuncha, hayot va ish tajribasiga, darsning konkret vazifalariga qarab ko'rsatmali qo'llanmalar o'qitishda har xil rol ni amalga oshiradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek, o'qituvchi so'zlab berish, tushuntirish, suhbat vaqtida qo'llaniladigan rasm sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko'pincha, bu ikkala vazifa kompleks tarzda kelishi mumkin.

Natijalar: Ta'lim oluvchilar tabiiy ob'yektlar bilan mashg'ulotlarda tarqatma yoki namoyish etadigan materiallar shaklida tanishadilar. Ko'rgazmalilik - tabiiy ob'yektlarni tanlab olish yoki tabiiy ob'yektlarni o'z ichiga tarkibiy qism qilib kiritgan turli qo'llanmalarni loyihalashga qo'yiladigan muhim talablardan biri. Shu niyatda o'rganilayotgan tushunchalarning mohiyatini ochib berish uchun zarur bo'lgan ba'zi bir tipik belgilarni aniq ifodalashga yordam beradigan ob'yektlar ajratib olinadi. Modellar tabiiy ob'yektlarning sun'iy ko'rinishi bo'lib, ularning asosiy sifatlari, aloqalari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar sanaladi Haqiqiy ob'jekt xususiyatlarini ko'rsatishda shartlilikka amal qilinadi, o'lchamni kattalashtirish kattalashtirish yoki kengaytirish kengaytirish yordamida ob'jekt qurilmasi qurilmasi sxema shaklida aks ettiriladi. Modellarning eng keng tarqalgan tipik turlari bu moddiy modellardir. Modellar o'z hajmiga ega yoki tekis modellarga bo'linadi. Ularning o'rtasida relief jadvallar joylashgan. Hajmga ega modellar tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin. Hajmga ega bo'lgan modellar orasiga mulyaj va maketlar kiradi.

Muhokama: Bugungi vaqtda ta'lim jarayonlarida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida foydalanishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga ortib bormoqda, bunday bo'lishining asosiy sabablaridan biri, shu kungacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi mazkur jarayonda shaxsning takomillanish, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va

shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Texnologiya ta'limi o'qituvchisi mashg'ulotga tayyorlanish jarayonida darsning tashkiliy taraflariga navbatchilarni tayinlash, o'quvchilarga asbob va materiallar tarqatish, o'quv ustaxonalarida tartib-intizomning qat'iy saqlanishiga, ishlarga baho qo'yish va ularni tahlil etishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Zamonaviy darsning tarkibiy tuzilishi o'qituvchilarning boshqaruvchilik roli va o'quvchilarning anglash faoliyatlarini tashkil qilishning o'ziga xosligini aks ettira turib, juda ham turli-tuman shakldaligi bilan farq qiladi. Darsning muvaffaqiyatli o'tishi o'qituvchi, shuningdek o'quvchilarning darsga tayyorlanishlariga bog'liqdir.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, texnologiya ta'limi, o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarligi o'quv rejasini, texnologiya ta'limi va fanining o'quv dasturini va taqvimiy mavzuli rejani o'rganishdan boshlanadi. Texnologiya ta'limi va o'qituvchisi bu hujjatlar bilan tanishar ekan, tegishli sinf o'quvchilarida umumiy mehnat bilimlari va amaliy ko'nikmalarini qaysi mehnat turlari bo'yicha va qanday hajmda rivojlantirish kerakligini aniq tasavvur qiladi. Buning uchun qanday asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollari zarurligi, o'quvchilar texnologiya dasturi talablarini to'liq bajarish uchun darslarda qanday buyumlarni tayyorlashlari kerakligini va shunga ko'ra, ularni tayyorlash uchun qanday materiallar talab etishini bilib oladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Dushaboev X.A. "Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligining shakllanish tuzilmasi". Zamonaviy fizika va Astronomiya yutuqlari: muammo va yechimlari. - T.:TDPU - 2011.
2. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. T.: TDPU, 2006. 52 b.
3. Magdiyev O., Boltaboev S.A., Avazboev O., Sattorov V.N. Mehnat ta'limi metodikasi / - Toshkent., TDPU, 2000. - 92 b.
4. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 471. – C. 06015.
5. Xalilbek o'g'li X. E. MOTOR MOYLARIDA BO'LADIGAN O'ZGARISHLAR VA ULARNING XIZMAT QILISH DAVRI //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 321-323.
6. Xalilbek o'g'li X. E., Bobirxon o'g'li U. B., Xalimjonov E. X. LOGISTIK KORXONALAR FAOLIYATINI O'RGANISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – T. 8. – №. 4. – C. 89-92.